

ISLOMDA ISMOILIYLIK TARMOG'I VA OQIMLARINING O'RNI

Madaminjon Elmurod o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi Esanov
madaminjonesanov1503@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada haq dini bo'lgan Islomdagagi ismoiliylik yo'nalishi vujudga kelish shart-sharoitlari,oqimlari va oqimlaridagi o'ziga xos tomonlari, shialikning bu oqimiga e'tiqod qilgan buyuk ajdodlarimiz, qolaversa, bu oqimning qurbaniga aylanganlar haqida so'z boradi*

Abstract: *This article talks about the conditions for the emergence of the Ismaili direction in Islam, which is the true religion, the specific aspects of its currents and currents, our great ancestors who believed in this current of Shiism, as well as those who became victims of this current.*

Kalit so'zlar: *qur'on,botiniy va zohiriyy, assassinlar, nizoriy, mustalit, fotimiyy, imom, payg'ambar, mushrik, maxfiy.*

Keywords: *quran, inner and outer, assassins, nizari, mustalit, fatimi, imam, prophet, polytheist, confidential.*

Ismoiliylik shia islomining bir tarmog'i hisoblanib, Fotimiylar hukmronligi davrida o'z siyosiy cho'qqisi va yuksak ta'sir doirasiga erishadi. Ismoiliylar xudoning birligiga Muhammad uning rasuli,so'ngi payg'ambarligi va mahdiyning kelishiga ishonishadi.Bu oqimga e'tiqod qiluvchilar hozir ham mavjud bo'lib, asosan Tojikistonning Tog'li Badaxshon avtonom viloyati, pomir atroflari, Afg'oniston,Yaman, Livan, Pokiston, Suriya, AQSH, Kanada, Yangi Zelandiyada uchratish mumkin.

Arab xalifaligida VIII asr o'rtalarida shia yo'nlishi shakllanadi. X-XI asrlarda xalifalikda xalq qo'zg'olonlari kuchayib, Abbosiylar hokimiyatida norozilik ortib boradi. Abbosiylarga qarshi kurash maqsadida bir guruh shialar Imom Ja'far as-Sodiqning katta o'g'li Ismoil (oqim nomi shundan kelib chiqqan) atrofida birlasha boshlaydi.Imom Ja'far Ismoilni vorislikdan mahrum qilib kichik o'g'li Muso al-Kozimni vorisi deb e'lion qiladi.Sababi Ismoil ichkilikka berilib ketgandi. Bundan norozi bo'lgan Ismoil tarafдорлари vafotidan so'ng o'g'li Muhammad ibn Ismoilni imom deb e'lion qiladilar. IX asr oxiriga kelib mustaqil diniy firqa sifatida shakllanib, maxfiy uyushma va tashkilotlar tuzadi.



Ismoiliylar Qur'on ikki darajali ma'noga ega deb hisoblaydilar: "zohiriy" ya'ni ochiq va "botiniy" yashirin. Zohiriy shialarning umumiylaridan farq qilmay, oddiy ommaga mo'ljallangan bo'ladi. Botiniyda esa xudo o'zidan quyi bo'lgan 7 pog'onani ajratadi ya'ni, Mutlaq xudo, olamiy aql, olamiy jon, birlamchi materiya, fazo, vaqt, komil inson (payg'ambar). Ismoiliylar Qur'onnini Muhammadga Jabroil farishta orqali 23 yil davomida yuborilgan deb hisoblashadi. Ularning fikricha, imom Qur'onnini hozirgi zamon bilan bog'liq holda tafsir qilish vakolatiga ega. Bir qancha yuqori martabali fotimiylar Ismoiliylar Qur'onning (ta'vil) so'zma-so'z vahiyisiga (tanzil) o'xshashi sifatida ezoterik talqin qilish amaliyotini yuqori baholaganlar. Ta'vil biror narsani o'z manbasiga qaytarish demakdir. Bunda Qur'onning ekzoterik talqini o'zining asl ezoterik ma'nosiga qaytish usuli nazarda tutiladi. Fotimiylarning hurmatli arbobi al-Muayyad fi-d-Din ash-Sheroziy buni yanada kengaytirib, "ta'vil" biror narsaning o'z manbasiga (avvalix) qaytishini bildiradi", deb ta'kidlaydi. Fotimiylarning faqiji Qodi an-Nu'mon "tavilni tarqatish vakolati faqat Alloh taolo bu vazifa uchun maxsus tayinlagan kishilarga (ya'ni imomlarga) tegishli", deb qo'shimcha qiladi⁷. "Ismoiliylar uchun imom haqiqatning timsoli, Muhammad ibn Ismoil va Al-Mahdiy Bilol davrlarida ustoz va shogird munosabati muqaddas bo'lib da'i bundan ustun bo'lgan mavqega ega"⁸.

O'rta asrlarda ismoiliylar orasida nizoriy, musta'liylar, druzlar, qarmatlar kabi oqimlar ajralib chiqqan.

Nizoriylar

Ismoiliylar jamoasining aksariyati nizoriy ismoiliylaridir. Bugungi kunda shahzoda Karim Oq'a Xon IVni o'zlarining 49-imomi sifatida tan olishadi, ular Muhammadning qizi Fotima az-Zahra va Muhammadning amakivachchasi va kuyovi Ali orqali uning avlodni ekanini da'vo qilishadi. 46-ismoiliy imomi Oq'a Hasan Alishoh 1840-yillarda Qojarshohga qarshi muvaffaqiyatsiz davlat to'ntarishida ayblanib, Erondan qochib ketgan. Oq'a Hasan Ali Shoh 1848 yilda Mumbayga joylashdi.

Musta'liylar

Musta'liylar ismoiliylikning mo'tadil tarmogi bo'lib, Misrda o'z manzilgohlarini o'rnatdilar. XI asrda musta'liylarning aksariyati Hindistonga ko'chib o'tgan. Fotimiylar xalifaligi qulagandan keyin musta'liylarning ruhiy markazi Yamanga, XVIII asr boshlarida esa Hindistonga ko'chib o'tdi.

⁷ "The Birth of Jesus"- Studies in Islamic Historiography, 2019.p147-179

⁸Daftary Farhad. Short history of the ismailis: Tradition of a muslim community. Edinburg; Edinburg University Press. 2020 p 104



Druzlar - ismoiliylarga yaqin etno-konfessiyaviy jamoa, ulardan IX asr boshlarida ajralib chiqqan. Druzlar ruhlarning ko'chishi va odamlarda yagona Xudoning mujassamlanishiga oxirgi marta xalifa al-Hakimda ishonadilar⁹.

Ko'pchilik druzlar endi o'zlarini musulmon deb hisoblamaydi. Taniqli islom ilohiyotchisi Ibn Taymiya druzlarni musulmon bo'lmaganlar deb rad etgan va o'z fatvosida druzlar: "Ahli kitob yoki mushriklar darajasida emas. Katta ehtimol bilan, ular eng mashhur kofirlardandir. Ularning ayollarini qul qilib olishlari va mol-mulklarini musodara qilishlari mumkin ular qachon topilsa, o'ldirilishi va ta'riflaganidek la'natlanishi kerak. Ularning ulamolari va diniy peshvolarini boshqalarni adashtirmasliklari uchun o'ldirish vojibdir"¹⁰, bu vaziyatda murtad sifatida ularga nisbatan zo'ravonlikni qonuniylashtirgan bo'lardi. Usmonlilar imperiyasi druzlarni ta'qib qilishini oqlash uchun ko'pincha Ibn Taymiyaning diniy hukmiga tayangan.

Qarmatiylar- IX asr oxirida Iroq janubida vujudga kelib, markazi Bahraynni bo'lgan. "Umumiy tenglik" g'oyalarni niqob qilib ko'plab buzg'inliklar qilishadi. Bu g'oyalarni O'rta osiyoga yoyish maqsadida 907-yilda kirib kelishadi. Harakatning rahnamoni Abu Bilol o'sha yildayoq Ismoil Somoniy tomonidan o'ldiriladi. Qaarmatiylik harakatining yangi rahnamosi Husayn ibn Ali Marvaziy 918-yilda somoniylarga qarshi bosh ko'taradi ammo bu ham o'sha yili bostirilib, Marvaziy qo'lga olinadi. Qarmatiylikning navbatdagi targ'ibotchisi Muhammad ibn Ahmad Nahshabiylar bo'lib, makkorlik va riyokorlik bilan nafaqat "bozor ahli"ni balki saroy a'yonlari hatto Nasr II ni ham og'dirib oladi¹¹. Somoniylarning mashhur Ismoiliy, Ahmadiy, Nasriy oilasidan to'qqiz kishi, ikki Nuh, ikki Abdumalik va ikki Mansurlar qarmatiylik g'oyalari tarfdori bo'lishgan. "Somoniy amirlari erkin fikrlash muhitini ta'minlay oldilar va ular hukumat ishlarida, mamlakat iqtisodiyoti va sivilizatsiyasini rivojlantirishda turli tariqat va guruhlarning g'oya va maqsadlaridan foydalanganliklari. faqat shu davrda va ayniqsa Nasr ibn Ahmad hukumati davrida ismoiliylik shia dini yangi g'oya va maqsadlarga ega bo'lgan oqimlardan biri sifatida tarqalib, saroy amaldorlari orasidan ko'plab muhlislар topdi. "Al-Fahrest Ibn Nadim Nasr Somoniy" kitobi mualifining xabariga ko'ra, Muhammad ibn Ahmad Nasfiyning tasdig'i bilan ismoiliylik dinini qabul qilgan va hatto ismoiliylar davrining Mag'rib imomi Mawlana Qoimga bo'ysungan¹². O'rta asrlarda ismoiliylikning yorqin

⁹ Друзы. Большая российская энциклопедия, М.: 2004-2017.

¹⁰ Michael Muhammad Knight. Journey to the end of Islam-Soft Scull Press, 2009. p129-360.

¹¹ A.A.Sagdullayev, O'zbekiston Tarixi,O'zFA. "Fan". T.:2018,p 320-324

¹² Doktor Hakim Qalandraf, Rudakiy va Ismoiliya, Tehron. "Rozamat"-2016.



namoyandalari Rudakiy, Ibn Sino, Abu al-A'llo al-Ma'arriy va Nozir Xisrav bo'lishgan¹³.

Yana bir shunday oqimi borki, o'rta asrlarda uning nomini eshitgan hukmdorlarni ham sarosimaga solgan. Bu-hashshoshiylar ("giyohmand") yoki assasinlar (yevropadagi nomi) deb nomlangan yashirin terroristik guruhdir. Asoschisi Hasan ibn Sabboh o'z qo'l ostidagilarni yuksak intizom bilan tayyorlagan va bu jarayonda askarlariga giyohmand moddalar iste'mol qildirgan degan qarash ham mavjud. Bu harakat xalifalik va saljuqiylarga qarshi kurashgan. Assasinlarning yirik o'lchalaridan biri saljuqiylar bosh vaziri Nizomulmulk hisoblanadi. Bag'dod xalifasi Al-Mustarshid ham assassinlar qurbaniga aylangan¹⁴.

Xulosa o'rnida, "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deyishdan boshqa choramiz yo'q. Aynan shu oqimlar ta'sirida hozir ham dinni niqob qilib olgan maddohlar manqurtlarcha jamiyatlarga zarar yetkazishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Sagdullayev, O'zbekiston Tarixi,O'zFA. "Fan". T.:2018,
2. Doktor Hakim Qalandraf, Rudakiy va Ismoiliya, Tehron."Rozamat"-2016
3. В.А.Иванов.Очерки по истории исмаилизма,Сант-Петербург.2011

¹³ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000

¹⁴ A.A.Sagdullayev, O'zbekiston Tarixi,O'zFA. "Fan". T.:2018,p320-324

